



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 14-fevral, shanba,
14 (24.194)-son

O'zbek xalq
maqoli

Erning
moli -
elning moli

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



Viloyat hokimi Adiz Boboyev Samarqand shahridagi o'zi otaliqqa olgan yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

VILOYAT HOKIMI yoshlarning murojaatlarini eshitdi

Uchrashuv davomida yoshlarning muammolari, ularni qiyinayotgan masalalar hamda kelgusidagi rejalari atroficha muhokama qilindi.

Muloqot jarayonida yoshlar bandlik, ta'lim olish, tibbiy yordam, kasb-hunar o'rganish va tadbirkorlikni yo'lga qo'yish masalalarida murojaat yo'lladi.

Jumladan, Sabina Rajapbayeva jarrohlik operatsiyasi xarajatlarini qoplab berishda yordam so'ragan bo'lsa, Ruslan Xarin yashash sharoiti og'irligini bildirib, ishga borib-kelish uchun velosiped kerakligini ma'lum qildi.

Har bir murojaat tinglanib, aniqlangan

muammolarni bartaraf etish yuzasidan mas'ul tashkilotlar rahbarlariga tegishli topshiriqlar berildi.

Uchrashuv yakunida viloyat rahbari Adiz Boboyev otaliqqa olingan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish muhim vazifa ekanini ta'kidladi.

— Hech bir yoshning muammosi e'tibordan chetda qolmaydi, ularning bandligi va ijtimoiy

faolligini oshirish ishlari davom ettiriladi, — dedi viloyat hokimi. — Shuningdek, yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarga jalb qilish, imtiyozli kredit va subsidiya imkoniyatlaridan samarali foydalanishini ta'minlash hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari doimiy ravishda diqqat markazida bo'lishi shart.

Muloqot davomida yoshlarga kitoblar jamlanmasi tarqatildi.

Elektrga CHEKLOV — kiritish,

ko'rsatilmagan xizmat uchun pul undirish emasmi?

Bir yilcha oldin chiqindidan qarzadorligi bor fuqarolarning elektr to'loviga cheklov o'rnatish boshlangandi. Aslida bu amaliyot iste'molchi huquqini poymol qilish ekanligi kunday ravshan bo'lsa-da, raqobat qo'mitasi tomonidan iste'molchilar foydasiga biror bir harakat kuzatilmadi. Chiqindi tashish korxonalari esa asossiz ravishda xonadonda yashaydigan odam soniga qarab summa belgilab, sun'iy qarzadorlik yasayverishdi.



narx asosida haftada necha marotaba chiqindi yig'ishni tashkil etishi ko'rsatiladi. Uyda yashaydigan chaqaloq ham iste'molchi sifatida hisoblanib, pul undirilgan ekan, demak, har bir xonadondagilarning yarmidan ortig'i rozi bo'lishi kerak. Ya'ni, hech bo'lmaganda har bir iste'molchi shartnoma bilan tanishishi shart. Chunki xizmat ko'rsatuvchi va pul to'lovchi o'z majburiyatini to'la anglab yetishi zarur. Lekin joylarda ayniqsa, qish paytlari oylab chiqindi tashish mashinasi kelmasa-da, qarzadorlik hisoblangan holatlar bo'ldi.

Qoidaga ko'ra chiqindi tashish korxonasi mahalladagi iste'molchilarning 51 foizi imzo chekkan taqdirda bu faoliyatni yo'lga qo'yadi va belgilangan

elektrga to'lov qilishi cheklangan. Fevral boshida respublika bo'yicha chiqindi xizmatidan qarzadorlik 108 milliard so'mdan oshgan.

SHARTNOMA NIMA UCHUN ZARUR?

Shartnoma xizmat ko'rsatuvchi va haq to'lovchining majburiyatlarini belgilaydi va to'lovlar kafolatini ta'minlaydi. Bir xizmat sifatisiz va o'z vaqtida bajarilmasa boshqa xizmat turi orqali jazolash demokratik huquqiy tamoyillarga aslo to'g'ri kelmaydi. Agarda ikki taraf ham shartnoma tuzishda o'z majburiyatlarini to'g'ri anglasa va bajarilgan xizmat uchun to'lovlar amalga oshirilmasa, sudga berib undirish choralarini ko'rish mumkin-ku. Lekin ko'rsatilmagan xizmat va vaqtida olib ketilmagan chiqindi uchun elektrga to'lovni cheklash o'rta asrlar tutumini eslatmoqda.

Endi esa fuqarolar boshqaruv-servis kompaniya (BSK) lariga "kvartplata"ni har oyning

15-sanasi qadar to'lanmasa, elektr energiyasiga cheklov kiritish g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunda ham o'sha shirkatlar yoki BSKlar aholi bilan shartnoma tuzmagan va ikki tomon majburiyatlarini belgilanmagan, vazifalar taqsimlanmagan holda otning kallasidek to'lovlar belgilanishi qaysi mantiqqa to'g'ri keladi? Misol uchun, hali yangi maskan bo'lgan Qorasuv massivida ham BSKlar oylik to'lovlarni katta summa belgilashi haqida murojaatlar ko'p keladi. "Ko'p qavatli uylar atrofini obodonlashtirish, daraxt ekish, atrofini o'rash, sug'orish, qishda yo'laklarni tozalashni ham o'zimiz pul yig'ib bajaramiz, shirkat esa katta to'lovni liftga bog'lab qo'ygan. Shunday ham uy uchun kredit to'layotgan aholi uchun bu og'irlik qiladi. Ular-ning bu harakatini kimdir nazorat qiladimi?" deyiladi bir murojaatda. Rostdan ham uy uchun kredit to'lovchilarga bunchalik katta oylik to'lov belgilash qanchalik to'g'ri, buning ustiga massivdagi uylar yaqinda qurilgan va katta xarajat talab qilinadigan ahvolda bo'lmasa, ya'ni "kvartplata"ni elektr to'lovlariga bog'lash g'oyasi iste'molchi manfaatiga zid ravishda bo'lsa ham pul undirishga o'xshab qolmayaptimi?

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Mulohaza

TADBIRKORLAR

qo'mita raisiga muammolarini aytdi

Turizm qo'mitasi raisi Abdulaziz Aqqulov viloyatimiz turizm sohasi mas'ullari va tadbirkorlar bilan muloqotda bo'ldi. Avvaliga maishiy muammolar arzi bilan boshlangan qizg'in savol-javoblar jiddiy turizm loyihalari takliflari bilan qo'r oldi.



**Nega ovqatlanish shoxobchalari hech qanday ogohlantirishsiz gaz tarmog'idan uzib qo'yiladi?*

**Shahrimizdagi gastronomik ko'chada ko'ngildagidek faoliyat yuritishimiz uchun tadbirkorlarga alohida transformator o'rnatishning iloji yo'qmi, xarajatini o'zimiz ko'tarishga tayyormiz...*

**Shahar ko'chalaridagi tilanchilar ziyorat hududlarida, sayyohlar ortidan yurishi ishimizga dog' tushiryapti.*



Har bir masala bo'yicha mutasaddirlarning javoblari bildirildi, ularni hal qilishda hamkorlik yo'lga qo'yilishi ta'kidlandi.

Bir necha kundan beri Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish, yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish bo'yicha manzilli o'rganishlar olib borildi, — dedi Turizm qo'mitasi raisi Abdulaziz Aqqulov. — Ushbu o'rganishlar natijasida bir nechta obyektlarning aniq loyihalari ishlab chiqildi. Loyihalar yanada mukammallashtirib, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha dastur va qarorlarga kiritiladi. Xususan, Bulung'urdagi Sher-oz qal'ani Amir Temur davrini aks ettiruvchi ochiq tomoshagoh sifatida shakllantirish, Nurobodagi Nurbu-mahallasida mineral suv hududini kurort manzilga aylantirish va boshqa ko'plab shunday manzillar loyiha

shakliga keltirildi.

Uchrashuvda tadbirkorlar Samarqandda Andrea Bochelli kabi dunyo tanigan yulduzlarning konsert berishi ortidan shaharga minglab sayyohlar kelganini aytib, shunday dasturlar davomli bo'lishini so'rashdi. Shuningdek, keyingi paytda rentkar tizimi yo'lga qo'yilgani tufayli ko'plab sayyohlar mashinalarni ijaraga olib, qo'shni viloyatlar, dam olish hududlariga borish istagini bildirayotganini ta'kidlashdi. Shu bilan birga viloyatlararo yo'llarning talabga javob bermasligi, yo'l bo'ylarida oddiy ehtiyojlar uchun sharoitlar yo'qligini aytib o'tishdi.

Mutasaddirlar bu fikrlarga o'z munosabatini bildirib, bu takliflar albatta tegishli mas'ullar bilan muhokama etilishini ma'lum qildi.

Gulruh MO'MINOVA, Fazliddin RO'ZIBOYEV (surat).



Mahdumi A'zam ziyoratgohi yaqinida (M-37 avtomobil yo'lida) yer osti piyodalar o'tish yo'lagi quriladi



O'qituvchilar mukofot puli 577 million so'm bo'lgan tanlovda qatnashyapti



Cho'ponota tepaligi mamlakat milliy koordinatlar tizimining nol nuqtasi etib belgilandi



Ishtixondagi gaz ballon portlashi yuzasidan rasmiy ma'lumot berildi

Davlatimiz rahbari tomonidan xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda ichki ishlar organlari uchun to'rtta ustuvor yo'nalish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

“SAMARQAND shahri tajribasi”

jinoyatchilikni jilovlashda qo'l keladi



Uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, kiberjinoyatchilik va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tanqid qilindi.

Shu jihatdan o'tgan yil jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar hamda joriy yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga to'xtalib o'tmoqchiman. Xususan, 2025-yilda viloyat hududida jami 15998 ta jinoyat qayd etildi. Ularning 5156 tasi oldini olish mumkin bo'lgan, 3241 tasi aniqlangan, 7601 tasi yoki 47 foizi axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tashkil qildi.

Tahlillarga ko'ra, 2025-yilning sentabr oyidan boshlab, "Samarqand tajribasi" sifatida viloyat hududida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlash maqsadida belgilab olgan ustuvor yo'nalishlarimiz o'zining samarasini berdi.

Ya'ni, hodisa joyiga 5 daqiqada yetib borish tizimi yo'lga qo'yildi. "112 tizimi" bo'yicha kelib tushgan 110266 ta xabarning 109079 tasiga 8 daqiqagacha, 971 tasiga 8-15 daqiqagacha, 216 tasiga 15-30 daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida yetib borildi.

Shuningdek, "112 tizimi" orqali fuqarolardan kelib tushgan xabarlar kunlik tahlil qilinib, eng ko'p murojaatlar tushayotgan shahar va tuman, mahalla, ko'cha va xonadonlar aniqlanib, xabarlarining turlari bo'yicha viloyat IIBning tegishli sohaviy xizmatlaridan mas'ullar birlashtirilib, muammolar o'z vaqtida hal etilmoqda.

Natijada 2 mingga yaqin og'ir

oqibatlariga olib keluvchi jinoyatlarning oldi olindi.

Yil davomida huquqbuzarlik sodir etish hamda undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan 121169 nafar shaxsga "Ijtimoiy profilaktika" tadbirlar doirasida xulosalar berildi. Ma'lumot uchun, xulosalarning 32430 tasi hokim yordamchilariga, 26768 tasi xotin-qizlar faoliga, 21107 tasi yoshlar yetakchilariga, 20583 tasi ijtimoiy xodimlarga, 18517 tasi profilaktika inspektorlariga va 1765 tasi soliq inspektorlariga berilgan.

Xulosalar "mahalla yetitiligi" ishtirokida o'rganilib 80 foizi bo'yicha qo'shma xulosa tuzildi. Natijada 106583 ta muammo ijobiy hal etildi.

Biroq ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan yetarli darajada ishlar olib borilmaganligi sababli ularning 782 nafari tomonidan oldini olish mumkin bo'lgan jinoyat sodir etilgan. Umuman, o'tgan yil sodir etilgan jinoyatlarning 2037 tasi yoki 12 foizi mahalla hududida sodir etilgan va oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar hisoblanadi.

Yil yakuni bilan viloyatdagi 1081 ta mahallaning 402 tasi "yashil", 561 tasi "sariq" va 118 tasi "qizil" toifaga kiritildi.

Darvoqe, sodir etilayotgan kiberjinoyatlar salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, o'tgan yili sodir etilgan shu turdagi jinoyatlarning 3964 tasi o'g'rilik, 3466 tasi firibgarlik, 171 tasi boshqa turdagi jinoyatlar hisoblanadi.

Bank plastik kartasi bilan bog'liq 7430 ta (o'g'rilik, firibgarlik) jinoyatlarni sodir etilish usullari tahlil qilinganida

3895 tasi soxta yoki zararli

ilovalar orqali bank karta yoki akkauntini egallab olish yo'li bilan, 1834 tasi tovar va xizmatlar uchun oldin to'lovlarini amalga oshirish shaklida, 438 tasi soxta kripto birjalarga qiziqitirish orqali, 398 tasi soxta treydinglik faoliyatiga qiziqitirish, 138 tasi nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish va 1 foizi - 90 tasi telefon qo'ng'iroqlari orqali turli aldovlar bilan sodir etilgan.

Umuman, 2025-yilda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklar bo'yicha 8611 ta murojaat kelib tushib, 2024-yilga nisbatan 3 773 taga oshdi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jinoyatlardan jabrlanish ehtimoli bo'lgan 2,3 ming bank kartalari bloklandi, 5 milliard so'mga yaqin pul mablag'larining talon-taroj etilishi oldi olindi. 28 ta shubhali internet resurslari bloklandi. Jinoyatlar natijasida yetkazilgan 50 milliard so'mga yaqin mablag'dan 8 milliard 200 million so'mi egalari qaytarilishi ta'minlandi.

O'tgan yilda korrupsiyaga oid va iqtisodiy asoslarga qaratilgan 281 ta jinoyat aniqlandi. Ularning 90 tasi firibgarlik va pora berish, 33 tasi talon-taroj qilish, 12 tasi valyuta qoidasini buzish, 8 tasi pora olish, 7 tasi qalbaki pul yasash, 5 tasi tovlamachilik, 126 tasi boshqa turdagi jinoyatlarni tashkil qiladi.

Albatta, joriy yilda viloyatida xavfsiz hududlarni shakllantirishga qaratilgan qator aniq va maqsadli chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, viloyat hududidagi 1063 ta mahallada xavfsiz muhitni ta'minlash bo'yicha kompleks ishlar olib borish, ijtimoiy profilaktika doirasida "xonadonma-xonadon" ishlashning namunaviy mexanizmini joriy etish rejalashtirildi.

Shuningdek, narkojinoyatchilik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olish borasida mas'ul idoralar bilan hamkorlikda tizimli choralar ko'rish, tuman va shaharlarda, xususan, uyushmagan yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "Samarqand shahri tajribasi"ni joriy etish vazifalari belgilandi.

Viloyat hududida qo'shimcha zamonaviy videokuzatuv vositalarini o'rnatish va ularni Ichki ishlar boshqarmasining "Yagona tezkor boshqaruv markazi"ga bosqichma-bosqich ulash, shuningdek, ko'ngilochar maskanlar, 24 soat faoliyat yurituvchi gastronomik ko'chalar, savdo markazlari hamda ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan hududlarda jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha kompleks choralar belgilab olindi.

Internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda qo'lga kiritish va elektron to'lov tizimlariga tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilishga qaratilgan zamonaviy tahlil mexanizmlari joriy etiladi.

Ma'ruf SHERMUHAMMEDOV, viloyat IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik.

DAVLAT xizmatiga kirish



“tanish-bilish” siz, bilim va salohiyat asosida

Yillar davomida odamlar orasida “davlat ishiga kirish uchun yo katta pul yoki yaxshi tanish kerak,” degan stereotip shakllanib qolgan edi. Biroq Yangi O'zbekistonning ma'muriy islohotlari bu qarashlarni butunlay o'zgartirmoqda. Bugungi kunda davlat xizmati — yopiq eshiklar ortidagi kelishuvlar emas, balki vacancy.gov.uz portali orqali o'tadigan ochiq va shaffof jarayondir. 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonun hamda davlatimiz rahbarining 2025-yilda qabul qilingan ikkita farmoni bilan tizimda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Endi davlat xizmatiga kirishning yagona qonuniy yo'li — bu ochiq mustaqil tanlovdir.

Hali ko'pchilikda tabiiy savol bor: tanlov jarayoni qanday bo'ladi?

Amaldagi tartibga ko'ra, tanlov inson omili minimallashtirilgan 4 bosqichda o'tkaziladi.

Xususan, dastlab e'lon beriladi. Ya'ni, har qanday davlat organi bo'sh ish o'rni paydo bo'lishi bilan bu haqda yagona portalda e'lon berishga majbur. E'londa yashirin shartlar bo'lishi mumkin emas — oylik maosh, talablar va vazifalar aniq ko'rsatiladi.

Ikkinchi hujjat topshirish bosqichida masofaviy qulaylik yaratilganini alohida qayd etish o'rinni. Chunki endi e'lon berilgan bo'sh ish o'rniga talabgor uydin chiqmagan holda, elektron raqamli imzo (ERI) yoki OneID orqali portalga kirib, hujjat topshiradi.

Kadrlar xizmati xodimi 5 ish kuni ichida hujjatlaringiz malaka talablariga (ma'lumoti, staji, mutaxassisligi) mosligini tekshiradi.

Bu bosqichdan o'tgan nomzod bilimi baholanadi. Alohida aytib o'tish kerak, bu bosqichda "kimningdir jiyani" bo'lish yordam bermaydi. Chunki test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan "boshqaruv kadrlari" hamda "mutaxassislar" lavozim toifalari bo'yicha tuziladi va maxsus jihozlangan xonalarda kompyuter orqali olinadi.

Sinovlar huquqiy savodxonlik (Konstitutsiya va qonunlar), davlat tilini bilish, mantiqiy fikrlash (IQ) va axborot texnologiyalari yuzasidan o'tkaziladi.

Bunda yana bir muhim jihat shunda ki, umumiy 100 baldan kamida 56 ball to'plagan nomzodlar keyingi bosqichga o'tadi. Ahamiyatlisi, bir marta sinovda ishtirok etib to'plagan ball 6 oy davomida amal qilardi.

Hal qiluvchi palla — bu suhbat jarayoni. Eng mas'uliyatli bu bosqichda tanlov komissiyasi nomzodning dunyoqarashi va psixologik holatini baholaydi.

Unutmang, suhbat jarayoni majburiy tartibda video va audio yozuvga olinadi. Agar sizga nisbatan nohaqlik qilingan deb hisoblasangiz, ushbu yozuvni talab qilishingiz mumkin.

YANGI FARMON, YANGI TARTIBLAR...

Prezidentning 2025-yil 6-dekabrda gi farmoni bilan tizim yanada soddalashtirilmogda va nomzodlarga katta yengilliklar berilmogda. Jumladan, joriy yil 1-martdan boshlab, vacancy.gov.uz platformasida "Ish qidiruvchi" sifatida ro'yxatdan o'tib qo'yishingiz mumkin.

Endi har bir tanlov uchun qayta-qayta test topshirib, vaqt yo'qotmaysiz. Bir marta test topshirib, yuqori ball olsangiz, bu natija 1 yil davomida haqiqiy hisoblanadi va istalgan mos tanlovning suhbat bosqichiga to'g'ridan-to'g'ri o'tasiz.

Hujjatlaringizni endi kadrlar bo'limi xodimi emas, balki sun'iy intellekt elementlariga ega raqamli tizim avtomatik tekshiradi. Bu tanish-bilishchilikka mutlaqo chek qo'yadi.

Umuman, ko'pchilikda haliyam "davlat ishida oylik kam" degan tushuncha bor. Ayni paytda bu tushuncha eskirdi. Chunki "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun xodimlarga qator ijtimoiy va moddiy kafolatlarni beradi.

Misol uchun, KPI asosida mukofot, yaxshi ishlagan xodimga oylik maoshidan tashqari ustama va mukofot pullari to'lanadi. Ijtimoiy himoya borasida esa davlat xizmatiga xizmat uzoq yillik xizmati uchun qo'shimcha ta'til va ustamalar kafollanadi.

Bugungi davlat xizmati — bu bilimli, vatanparvar va halol kadrlar uchun ochiq maydon. Tizim shaffoflashdi, endi barchasi o'zingizga bog'liq. Hech ikkilanmay, vacancy.gov.uz portalida ro'yxatdan o'ting. O'z bilimingizga ishonang va davlat boshqaruvida o'rningizni toping!

Sardor MUHAMMADIYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligi viloyat filiali bosh inspektori.

O'zbekistonlik MUHOJIR AYOLLARga yordam ko'rsatamiz

Yaqinda ommaviy axborot vositalarida Turkiyada 37 yoshli O'zbekiston fuqarosi Durdona Hakimovaning vahshiylarcha o'ldirilishi va chiqindi qutisiga tashlab ketilishi haqdagi xabarlar tarqalgan edi.

Hodisa ortidan huquqni himoya qiluvchi idoralar gumonlanuvchilarni qo'lga oldi, shu bilan birga ayollar huquqlarini himoya qiluvchi guruhlar Istanbul va Anqara ko'chalarida tinch namoyishlar o'tkazdi.

Bu fojia Turkiyada jamiyatni larzaga soldi. Minglab ayollar ko'chalarga chiqdi. «Erkaklar zo'ravonligi to'xtatilsin», «Ayollar uchun adolat talab qilamiz», «Muhojir ayollar yolg'iz emas» degan shiorlar yangradi. Faqat Istanbulning o'zida 1000 dan ortiq inson norozilik marshida ishtirok etdi. Anqarada ham yuzlab odamlar yig'ildi. Namoyish ishtirokchilari zo'ravonlikka qarshi kurashish, ayollar xavfsizligini ta'minlash va bunday jinoyatlarning oldini olish masalalariga e'tibor qaratishni talab qildi. Nafaqat turkiyalik ayollar, balki muhojir xotin-qizlarning haq-huquqlariga ham befarq bo'lmagan, Turkiyadagi "KADEM" Ayollar va demokratiya assotsiatsiyasi direktorlar Kengashi rahbari Kanan Sari xonim bilan suhbatlashdik.

- Yaqinda o'zbekistonlik ayol — Durdona Hakimovaning vahshiylarcha o'ldirilishi Turkiyada katta rezonans keltirib chiqardi. Muhojir ayollarning hayotida bu kabi voqealar Siz boshchilik qiladigan tashkilot tomonidan o'rganiladimi?

- Biz, Ayollar va demokratiya assotsiatsiyasi sifatida ayollarga nisbatan zo'ravonlikning barcha holatlarida yaqindan ishtirok etamiz. Ayniqsa, jamoatchilikning g'azabini qo'zg'atadigan zo'ravonlik va qotillik

holatlarida jabrlanuvchining etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar sud jarayonida ishtirok etish orqali o'z munosabatimizni bildiramiz. Istanbulda o'zbekistonlik Durdona Hakimovaning shafqatsizlarcha o'ldirilishi haqida eshitganimiz zahoti ijtimoiy tarmoqlarda bu holatga nisbatan o'z munosabatimizni bildirdik, jinoyatchi albatta ushlanishi lozimligi bo'yicha xabarlar joylashtirdik.

- Turkiyalik ayollarning bu voqeaga befarq bo'lmagan namoyish o'tkazishi o'zbekistonlik



xotin-qizlarni ruhlantirdi. Bu holatlar qanday natijalarni beradi, deb o'ylaysiz?

-Ayollar huquqlari masalalari nafaqat ma'lum bir mittaqaning, balki afsuski, butun dunyoning muammosidir. Achinarlisi, biz, ayollarga nisbatan zo'ravonlik iqtisodiy jihatdan rivojlangan jamiyatlarda ham davom etayotganini ko'ryapmiz. Bu muammoning yechimi - xabardorlikni oshirishda. Turkiyada ayollarning bu qotillikka nisbatan munosabati juda muhim, ammo yetarli emas. Biz ilmiy-madaniy doiralardan tortib, huquq va fuqarolik faollarigacha bo'lgan aholi qatlamlari o'rtasida gender tenglikni

ta'minlash orqali bu xabardorlikni mustahkamlashga harakat qilmoqdamiz. Shuningdek, biz 8-mart va 25-noyabr kunlari ogohlik kampaniyalari orqali jamiyatning ijobiy tomonga o'zgarishini tezlashtirishga urinyapmiz. O'zbekiston bilan ham bu masalada hamkorligimiz bor. Xususan, Buxoro texnika universitetida "Oilani mustahkamlashga asoslangan davlat siyosati" deb nomlangan xalqaro konferensiya ilmiy hamkorligimizning bir qismidir. Ushbu konferensiya 16-17-fevral kunlari Istanbulda davom etadi. "KADEM" tashkilotimiz bu masaladagi qarashlarimiz va tamoyillarimizni "Ayollar huquqlari tamoyillari deklaratsiyasi" bilan butun dunyoga e'lon qildik.

- Tashkilotingiz tomonidan zo'ravonlik, tazyiqqa uchragan o'zbek ayollariga ham xizmatlar ko'rsatilganmi?

- Hozirda Turkiyaning beshta shahrida faoliyat yuritayotgan "KADEM" markazlariga murojaat qilayotgan barcha ayollarga yordam ko'rsatamiz. Hozirga qadar Istanbulning Edirnekapi shahridagi ayollarni qo'llab-quvvatlash markazimizga uch nafar o'zbekistonlik ayol murojaat qilgan. Biz ularga zarur yordam ko'rsatdik va ularning ehtiyojlari uchun yo'l xaritasini yaratib berdik. Mijozlar shaxsi sir tutilgani uchun ularning ismi va murojaat etish sabablarini oshkor qila olmaymiz.

- Onlayn bo'lsa-da, suhbatlashishga rozi bo'lganingiz va ma'lumotlar bilan bo'lishganingiz uchun tashakkur!

Gulruh MO'MINOVA suhbatlashdi.

Uning hayot yo'li yoshligidanoq tibbiyot, mehnat va insonlarga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan. O'quvchilik yillarida kechki maktabda o'qib yurgan kezlari Samarqand davlat tibbiyot institutining birinchi klinikasida kunduzi sanitar bo'lib ishlab, dastlabki amaliy ko'nikmalarni egallagan va shifokorlik kasbi qadriyatlarini o'rgandi. Ustozning umumiy mehnat staji 62 yilni tashkil etadi va bu u tanlangan ishga sodiqlikning yaqqol namunasidir.

Samarqand bolalar gastroenterologiya maktabi asoschisi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti birinchi pediatriya va neonatologiya kafedrası professorı, tibbiyot fanlari doktori Mardonqul Rustamov 1946-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. 1963-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutining pediatriya fakultetiga o'qishga kirib, mazkur fakultetning ilk bitiruvchilaridan bo'ldi. So'ngra institutning bolalar kasalliklari kafedrası aspiranturasida o'qidi. U birinchi ustozi - Samarqand pediatriklar maktabining asoschisi, professor B.Qoraxo'jayev rahbarligida 1974-yilda bolalarda ovqatlanishning surunkali buzilishlarida oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Mardonqul Rustamovich faol ilmiy ishlarni davom ettirib, 1989-yilda Moskvada, tibbiyot fanlari akademiyasining pediatriya ilmiy tekshirish institutida "Keskin kontinental iqlim sharoitida bolalarda gastro-duodenal patologiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Professor M.Rustamov klinik, ilmiy va pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli birlashtirib kelmoqda. Uning ilmiy tadqiqotlari asosiy yo'nalishi - bolalar gastroenterologiyasi, nutritsiologiyasi, bolalarda ovqat hazm qilish a'zolarining surunkali patologiyasi muammolari, shuningdek, kasalliklarning kechishiga iqlim-geografik omillarning ta'siri bilan bog'liq. U Samarqand viloyat bolalar gastroenterologiya maktabi asoschisi, bolalarga ixtisoslashtirilgan yordamni tashkil etishga katta hissa qo'shgan Samarqand viloyat

ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasining gastroenterologiya bo'limini tashkil etishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.

M.Rustamov rahbarligida 16 ta nomzodlik va 5 ta doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. 500 dan ortiq ilmiy nashrlar, 5 ta darslik va 12 ta o'quv qo'llanma muallifi, respublika va xalqaro kongresslar, simpoziumlar va ilmiy forumlar ishtirokchisi. U ko'p yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universitetining pediatriya yo'nalishi bo'yicha tarmoq o'quv-uslubiy va ilmiy-muammoli komissiyasini boshqarib, o'quv jarayonini takomillashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti dasturlarini joriy etishga katta hissa qo'shgan.

Ustoz, 80 yillik mashaqqatli, ammo el uchun manfaatli bo'lgan dovoningiz muvofiq bo'lsin! Sizga mustahkam sog'lik, faol ijodiy faoliyat, oila va yaqinlar davrasida tinchlik va xotirjamlik, yangi ilmiy va pedagogik yutuqlar tilaymiz.

Nurali SHAVAZI,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
professori, tibbiyot fanlari doktori.



Yonimizdagi odamlar

Yurtimiz ravnaqi uchun fidoyilik bilan mehnat qilayotgan ustoz olimlarimiz hurmat va e'tirofga munosib. Ularning yosh avlodga berayotgan bilimlari Vatanimiz kelajagiga xizmat qilishi tayin. Ana shu mashaqqatli yo'lda mehnat qilib kelayotgan olimlardan biri Samarqand davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori Zubaydulla Izzatullayevdir. Ustozning bosib o'tgan zalvorli hayot yo'li va ilmiy faoliyatiga nazar solish o'sib kelayotgan yoshlar va zamondoshlarimiz uchun ibrat hisoblanadi.

Zubaydulla Izzatullayev Ikkinchi jahon urushi davrida Oqdaryo tumanidagi Dahbet qishlog'ida tug'ilib o'sdi. O'rta maktabni kumush medal bilan tugallagach, Dushanbe davlat universitetiga o'qishga kirdi. Undagi tashkilotchilik va ishtiroqni his qilgan ustozlari bo'lajak olimni shu dargohda ishga qoldirishdi.

Ilm bobida olgan saboqlari besamar ketmaganligi bois tez orada aspiranturaga qabul qilindi. Harbiy xizmatdan qaytgach Sankt-Peterburg davlat universitetida nomzodlik, keyinchalik esa oradan 18 yil o'tib doktorlik ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. Dushanbe shahrida ilmiy-pedagogik faoliyati davrida ko'plab shogirdlariga ilmiy rahbarlik qildi, maqolalar, qo'llanma, monografiya va darsliklar chop ettirdi. 1992-yildan faoliyatini Samarqand davlat pedagogika institutida, keyinchalik Samarqand davlat universitetida davom ettirdi. Chuqur bilim sohibi va hayotiy tajribaga ega ekanligi bois hozirgi ekologiya va hayotiy faoliyati xavfsizligi kafedrası tashkilotchisi hamda O'zbekistonda malakologlar maktabi asoschisiga aylandi.

Ustoz yoshlarga saboq berish bilan birga O'zbekistonga ilk bor zuluklarning tarqalishi, turlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu borada nufuzli davlat granti

asosidagi ilmiy ishlarga rahbarlik qilib kelmoqda.

Shuningdek, yurtimizda ekologiyaning dolzarb muammolari yechimini topish, yoritish va amaliyotga joriy etishda alohida jonbozlik ko'rsatib, universitetning jamoat ishlariga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Biologiya fanlari doktori, professor Z.Izzatullayev xalqaro miqyosidagi qator sovrinlarni qo'lga kiritgan, ko'plab nufuzli anjumanlarda ilmiy chiqishlar qilgan. Yaqindagi ustozning xizmatlari e'tiborga olinib, I-darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan ham taqdirladi.

Z.Izzatullayevning bosib o'tgan umr yo'lini Dahbet shaharchasi aholisi, ayniqsa, farzandlariyu bir-biridan shirin nabiralarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bugun taniqli zoolog olim Z.Izzatullayevni oila a'zolari va shogirdlari nomidan ushbu mukofot bilan chin dildan qutlar ekanmiz, ustozga sihat-salomatlik, barokatli umr tilab qolamiz.

Xidirali BOTIROV,
Samarqand davlat universiteti professori,
G'ofurjon DILMURODOV,
doktorant.



"POVOROT"(NI) NEGA "QAYIRMA" DEMAYMIZ?

DESAK BO'LADI—KU!

Shahrimizning eng gavjum, kelgan ham, ketgan ham birrov tegib o'tadigan, keyingi paytlarda tiqilinchligi bilan muhokama mavzusiga aylangan joy "povorot"ga hijjalab ta'rif bermoq niyatim yo'q. Qiziqqanlar o'zlari izlanib, o'qib-o'rganishlari mumkin. Afsuski, sobiq ittifoq davrida ruscha atalgan joy nomlaridan haligacha qutulganimiz yo'q. Bugun, hatto, ko'pchilik buning ruscha so'z ekanligini ham bilmaydi.

Samarqand shahrida bunday joy nomlari ancha-muncha topiladi. Negadir, joy nomlarini o'zining asl tarixiy nomlari bilan atash, mustaqil bo'lganimizga 30 yil bo'libdiki, haligacha o'rninga keltirilgani yo'q. Kamiga, yaqin yillardan boshlab,

tuppa-tuzuk joy nomlarini forsiylashtirish urfi boshlanib ketdiki, endi bu alohida masala.

Keling, sizni chalg'itmay asosiy mavzuga qaytay. O'zbek tilining izohli lug'atida, "Qayirma" so'ziga — "qayiriladigan", "bukiladigan" deya ta'rif beril-

gan. Agar mana shu so'zni internetdan qidirsangiz ham sizni hayratga soladigan bir holatga duch kelasizki, O'zbekistonda "Qayirma" degan joy nomi bo'lmagan birorta hudud yo'q. Qoyil qoladigan joyingiz, bu atama deyarli qo'shni respublikalarda ham mo'lgidir. Shapshap demasdan ham bilsak bo'ladiki, bu, joy nomi sifatida ming yillardan beri bor.

Endi shunday savol tug'iladi, ota-bobolarimiz ming yildan beri qayrilib, bulirib oladigan joyni "Qayirma" deb nomlab kelgan ekan, nega biz haligacha tilimizga sugaldek taqaladigan "pov-

orot" degan so'zni ishlatishimiz kerak. Kamiga, izlanishda o'lgudek erinchoqligimiz.

E'tiborga olinar, balki olinmas, men Samarqandimizning mana shu "povorot" deya atalib, tilimizdan chiqishi qiyin bo'lgan ushbu joy nomini ota-bobomizdan qolgan "Qayirma" deb o'zgartirishni taklif qilaman. Bu ham bobo-molarimiz, ajdodlarimiz oldida yuzimizni yorug' qiladigan burchdir.

Bundan tashqari, yovqur shoirimiz Azim Suyun o'z she'riyatida "qayirmalar" degan yangi va qulay bir janrni kashf qilganki, aslida bu, bobomeros so'zning o'zagidir.

Fazliddin MADIYEV.

Taklif

Temir yo'l qoidalarini buzganlar jazolanadi

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining "Maroqand" bekatida xizmat ko'rsatish hududi 95,5 kilometrdagi temir yo'lga yaqin joylashgan 28 ta ta'lim muassasasi, 47 ta mahalla huquq-tartibot maskanlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur muassasalarda haftaning har chorshanba, payshanba kunlari temir yo'l kesishmalaridan o'tish qoidalariga rioya qilish, yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olishga doir targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqda.

Shunga qaramasdan, fuqarolarning temir yo'l atrofida o'ralgan sim to'siqlardan sakrab o'tish, belgilanmagan joylardan kesib o'tish, "Afrosiyob" tezyurur yo'lovchi poyezdlari harakatlanayotgan temir yo'l izlariga begona jism qo'yish, vagon oynalariga tosh otish holatlari uchrab turibdi.

Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida 126 nafar fuqaro turli xil ko'rinishdagi huquqbuzarliklar sodir etganliklari gumon qilinib, ularga nisbatan MJtKning tegishli moddalari bilan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

B.ALIXONOV,

Samarqand transport prokurori, adliya maslahatchisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Begmatov Usmanga (2023-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 7-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sattarov Salomga (2020-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Mamatova Maxpiratga (2009-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Mustafayev Absamat Ximmatovichga (2015-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Xamidova Santalat Ismatovnaga (2023-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Eshonkulova Noroyga (2020-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Narziqulov Ilxom Nabiyeovichga (2025-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Djaborova Orzgul Tuxtamurodovnaga (2021-yil 11-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ami-

nov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Axmedova Xayitgul Normamatovnaga (2024-yil 26-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasida marhum Raxmankulova Lola Xasanovnaga (2024-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Balibekov Xurramga (2019-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Burxonov Kuvondik Ergashevichga (2022-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Yuldashev Ashur Xujayarovichga (2025-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abdug'aniyev Shakarga (2020-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Egamberdiyev Shokirjon Temirovichga (2023-yil 19-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Rajabov Xakimga (2014-yil 13-av-

gustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Nasimov Sobirga (2017-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Usmanova Xidoyatga (2022-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

TOPGANGA MUKOFOT!
Fuqaro Odinayev Bekzodjon Botir o'g'liga qarashli 2020-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 30 J 753 PB bo'lgan "LASETTI" rusumli avtotransport vositasining davlat raqami belgisi Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbuni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.
Telefon: +99890-454-32-45.

BEKOR QILINADI
Samarqand tumanidagi "Gulbog'" mahalla fuqarolar yig'inining muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tug'ilgan kun

Bizni unutqanni unutmoq kerak...

(Bir g'azal haqida o'ylar)

Goh mahzun, goh shodmon bo'lsangiz, yurak yeru ko'kka sig'may, borligini bildirib turgan paytda bir hamdard – o'zingizga sig'mayotgan o'zligingizni diliga jo qilguvchi do'st izlaysiz. Topsangiz, uning sherikligidan dardingiz yengillashadi, tashnaligingiz qonadi. Sezgir qalbining tarozisi g'amlaringiz vaznini o'lchab beradi, dil oyinasi kimligingizni ko'rsatadi. Bir fikr qilasiz, bir shukur qilasiz.

O'sha dasti uzun, so'zlari jon tomingizga quyilguvchi, sizning hohlatigingizni o'zingizdan-da, o'tkazib anglaguvchi do'stlarning biri – Zahiriddin Muhammad Bobur! Uning ruhi shunday kuchliki, oradagi uzun yillarni, yo'llarni pisand qilmaydi. O'lislardan turib, bugungi dil o'rta'ntashlarigizga she-rik bo'laveradi. Siz qo'lingizga kitob jovonidan Bobur devonini olsangiz bas. Unga ko'ngil yorishga jur'at topsangiz bas... Bo'zlashlaringizga ul hazrat shundoq javob beradilar:

O'zni ko'ngul aysh ichra tutmoq kerak, Bizni unutqanni unutmoq kerak.

Shoirlar kuyib-pishasiz: - "Uningsiz ko'ngil qanday qilib aysh qilsin?". Axir rohatning ildizlari u tufayli tortgan azoblardan unib chiqmaydimi? Ayshning ko'zini yashnatib, dilni allalovchi har gul niholi uning hajri tig'lari bilan chopiq qilib, ko'zimning yoshlari bilan sug'oriladi-ku? Shoirim, nechuk shuncha qiyin talab ustiga undan-da og'irrog'ini yuklab, meni o'z safinigizga, himoyangizga olib, tayinlaysiz: "Bizni unutqanni unutmoq kerak..." deb.

Gap shunda-da, axir! Unutolmaslik dardi qon yuttirgach, Sizga topingan edim-ku, deysiz. Unutish darsini o'ting, men jabrdiydaga, deb yulborasiz, bu dard bilan o'zi-da og'irgan buyuk tabibga. Qanday unutib bo'ladi u kunlarni? Soch tolalariga qadar, olar nafasiga qadar ulug'lanaverib, boshi ko'kka yetgan ul siymoni qanday unutib bo'ladi?.. "Boshi ko'kka yetgan...". Shul joyda surinib ketasiz. Peshonangiz qayg'u tuningin peshtoqlariga uriladi. Ko'zingizdan olov chiqib ketadi. Yurakning eng chekkasiga bekingan g'urur beholigina uyg'onadi. Shoh Boburning ta'kidiga qo'shilib ketasiz: "u-n-u-t-m-o-q k-e-r-a-k"! Alam tegirmonining toshi ostida ezilayotgan dilingizga Bobur hazratlari yordam qo'lini g'urur ostonasidan turib uzatadi. Entikib navbatdagi satrlar sehri-ga ixtiyorni berasiz:

Ayshu tarab gulbunig'a suv berib, G'ussa niholini qurutmoq kerak.

O, ayshu tarab gulbunig'a do'stlari davrasida o'ynab-kulib kelayotgan, quvonchlarga g'arq odamdan bir hovuch shodlik so'rasa bo'lar balki. Bir beparvo, loqaydga ishi tushib, dilingning komi qurib, yolg'izlik sahosida tashnalik azobini tortib, chekkan ohlari lablariga-cha qaqratib, yorib yuborgan odamning og'ziga umid tomchilarini tomizmoq o'rninga undan suv so'ramak... Buncha qahringiz qattiq shoirim, shohim?!

Parcha-parcha bo'lgan yurakni oyoq ostidan yig'ishtirib olmoq uchun, yana qaytib qad tiklamoq uchun kuch bormi? Dil pora bo'lguncha, yara bo'lguncha chekilgan azoblar, intizor kunlar qay-tadan azob yuklab, bu tanni qil ko'prikan, do'zax o'tidan ol'ktachmog'i, arosat o'lkasida muallaqlikka duchor qilmoq iztiroblariga chidab bo'larmikin?

Zaralab sochilgan ko'ngilni qum donalari kabi, undan ham maydaroq shisha siniqlarini yiqqan kabi yig'ib olmoq zahmatlariga o'zni chog'lash, shu shaylikaro sochmoq zavqi-yu, yig'moq qiynoqlari orasidagi yeru osmoncha farqni anglashga, kurashmoqqa chorla-mayaptimi, Bobur hazratlari? Yo g'olib



bo'lmoq, yo beparvo oyoqlari ostida tuproq bo'lmoqdan o'zga yo'l yo'qmi-a? Aytaylik, tuproq bo'ldik ham... Zero, bul tuproq uning yuzlaridan yog'du sochil-masa, ko'zlaridan obi hayot to'kilmasa, biror kun umid maysalari unib chiqmasa, xor bo'lmoqdan o'zga xizmatga yarama-sa, tuproqlik xizmatidan na hojat bor? Undan ko'ra boshni beparvo ko'ngil-ning istaklaridan (dordan qutulmoq kabi) qutultirmoq, malomat balchig'ini tark etmoq yaxshi emasmi?! Shunda shoh shoirming qattiq qahri – sizni xorlik balosidan qutqarguvchi najot ko'prigi ekanini anglab qolasiz. Bu ko'priikka qadam qo'ya olsangiz, "Ayshu tarab gulbunig'a suv" topa olsangiz, navbatdagi talab: "g'ussa niholini qurutmoq" bajariladi. Ko'zingizning yoshlari bilan sug'ormasangiz, ko'nglingizni g'am bilan qayta-qayta shudgorlab, yaramasangiz g'ussa niholi xazonrezgillikka uchrashi turgan gap. O'zingizni ozgina o'nglab, umidvor ko'zlaringizni satrlarga tikasiz. Holatingizni sezib turgan shoir sizni yuk-sakroqqa chorlaydi:

Har nimaga g'am yema, g'am ko'pturur, Aysh bilan o'zni ovutmoq kerak.

"Har nima" shunchaki har nima emasligini Bobur hazratlari yaxshi bi-ladilar. Ildizlari yurakning tomirlari birla chirmashib ketgan bog'lanishni uzmoq, kunu tunimizning shohi-yu quli bo'lgan kimsadan ko'ngilni sovutmoq uchun qancha jasorat kerak bo'lsa, shuncha chorlaydi shoir...

Dunyoning g'ami ko'p axir. "Bizni unutqanni" g'amini chekib yuraverib, o'zga jamiki mavjudlikka qo'l silkitsak, uyat bo'lar...

Tanimiz yaralgan tuproq, tomiri-miz yayragan suvdan tortib, yashagan kulbamiz, do'stu birodarlarimiz, qib-lagohlarimiz – padari buzurkvorimiz, volidai muhtaramimizga qadar bar-cha-barchasidan mehr qarzimiz bor. Bizni asrab turgan buyuk mutanosiblikka ozgina putur yetsa, badi'da, halokatga uchramaymizmi? Majdudligimiz boisi-ga shukronalikning o'zi – ularga o'zni bag'ishlash saodati baxtimiz emasmi? Nega bizga osmondan tushguvchi, bizni mensimovchi yot bir nigoh uchun g'am yeymiz? Zero, bizningki, bir xazon barg-cha qadrimiz bo'lmagach, ul nigoh ham biz uchun "har nima"ga aylanishi shart. Ko'ngli talangan, masxaralangan holda elga oshkor bo'lmaslik uchun ham shart!

Bul yorug' dunyoda ayshning turi oz emas. Ko'nglingiz yetguncha, tilagancha rohatlaning, ovuning, ey dili pora!

Qarang, yurtingizga bahor keldi. Muzlab yotgan tuproq ostidan nimjon-gina, ma'sumgina boychechak bosh ko'tarib chiqdi. Boychechak g'ururi-ning, mardligining zarrasini o'zingizga tilang. Zavqlaning undan. Shu mitti gulning ortidan butun alam uyg'on-ganini tomosha qiling. Uning jasoratiga ishonib, dehqon dalaga chiqdi, urug'lar tushdi zamin quchog'iga. Daraxtlar gul-ladi. Boychechakni nega hamma birday olqishlaydi? Qahri qattiq qishni sindir-gani uchun, bahorni boshlab kelishga kuch topgani uchun!

Qo'shni xonadondan chaqa-loq yig'isi eshitildi. G'olib hayotning davomchisi ovozidan, hali g'ussalar-ning xabari yo'q pokizalikning ovozidan hayratga tushing!

Hovuchlaringizni buloq suvidan to'ldirib simiring. U sizning nasibangiz, sizga atalgan. Allohning sizga va mil-lionlarga atalgan mehridan in'om bu!

Ishg'ol qilinmagan cho'qqilarga ye-tadigan oyoqlaringiz, quyuq tumanlarni kesib o'tadigan boqishlaringiz, yul-duzlarni tutmoqqa qodir qo'llaringiz bor! Muhimi, quvonchlarining ham, qayg'ularning ham qadrini biladi-gan, "birov"larnikiga o'xshab, loqayd bo'lmagan qalbingiz bor. Iztiroblar siqqan yurakka shodliklar yolg'inini ham mehmon qiling. Siz yoshsiz, kuchlisiz! Kurashmoqni bilasiz...

Goho hazin kuylar sizni "Bizni unu-t-qan"ning dargohiga yetaklab ketar damlardan saqlaneng. Bedor tunlar ko'z oldingizga "bir siymo"ni mixlab qo'ysa, uni qibla taraf devoriga osmoqdan tiyiling. Shu kunlarda bardoshingiz-ga, sabringizga yalining. Ojizligingizga ko'zingiz yetsa, yana Bobur shohiga arzga boring. Ul arzonada shoh Bobur kutib oladi, ammo yurak dardlaringizni shoir Bobur eshitadi.

Yolg'izlik yukini ko'tara olmasangiz, g'ussalarning changali dilingizga tirnoq botirsa, shul dargohga yuguring! Bun-da sizni qatlaridan olov to'kilgan, qon tomgan, ko'z yoshi silqqan – SO'ZLAR obi hayot qatrasidek tashna dilingizga tomchilab, ovutadi.

Ehtimol, bu dargoh ostonasidan najot izlab yugurgan damlaringizga-cha o'tgan lahzalaringiz olovidan bir olovxo'r qush rohatlanar... Laxcha cho'qqa aylangan yuragingiz cho'g'la-ridan hayot topib avjlanar... O'zining shul o't tufayli bunyod ekanidan bexabardir... Shunda yana va yana fido bo'lmoqdan, uning oyoqlariga yiqilmoqdan xo'rlangan dilingizni shoh Boburning zabardast ilki-yu, shoir Boburning nozik qalbi qutqarib qoladi!

Siz o'qiyotgan g'azalning yarmiki, Sizni halokatdan asray oldimi, endi qolgani ravon o'qiladi.

Tiyra durur zuhd g'amidin ko'ngil, Ishq o'ti birla yurutmoq kerak.

Qo'yma, mashaqqat aro Bobur ko'ngil,

O'zni farog'at bila tutmoq kerak.

O'q'ingiz sayin qaddingizni tiklab olmog'ingizga ishonchim komil! Endi siz hayiqmay, titramay, yig'lamay, yiqilmay, qat'iy va ohista shivirlay olish imkoniga egasiz.

Ana, Bobur dilingning daryosidan suv ichgan lablaringiz pichirlay boshladi: B-i-z-n-i u-n-u-t-m-o-q k-e-r-a-k... Oh!!

Xosiyat BOBOMURODOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira.

Ra'no SAMATOVA - Urgut tumanining Bek qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetini tamomlagan. Ilk she'riy to'plami "Har banding qalbinga jo bo'lgan Vatan" nomi bilan nashr etilgan. Ijod namunalari bir nechta bayozlardan o'rin olgan. Hozirda tumandagi 63-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori o'rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda.

HAYOT simfoniyasi

Umr asli nurli manzil, Yetmoqlikka chog'langanmiz. Tulpor ila ravon yo'ldan Ketmoqlikka chog'langanmiz.

Ko'ngil, yurak, najot, tuyg'u, Bu hayotda habib mangu, Oshiqlik, baxt, hijron, qayg'u Ichmoqlikka chog'langanmiz.

Go'yo bizga dunyo yolg'on, Hiyla bisyor, qiymat arzon, Qismat, tanlov, ichra sarson Kechmoqlikka chog'langanmiz.

Yuksalish, bo'y yoxud sinish, Dovullardan qoldi tinish, Nahot, ayting, endi enish O'chmoqlikka chog'langanmiz.

O'sish, kurash, qanot, parvoz, Imdod etsa, qandayin soz, Endi ishqni aylab e'zoz, Uchmoqlikka chog'langanmiz.

Ochib dilning himmatini, Qilib elning xizmatini, Shu Vatanning jannatini Quchmoqlikka chog'langanmiz.

QALB

Yaxshiyam sen borsan, erka tanti qalb, Yaxshiyam o'zimsan... bu g'amlar aro. Yig'lasam ko'zimga qo'ysanu lab, Va o'zing jonimga kirasan oro.

Yaxshiyam sen borsan, yonimda turib, Eng nozik pallada dilkash bo'lganim. Go'zal izhorlardan hapqirib yurib, Dilovar onlarda sarkash bo'lganim.

Yaxshiyam sen borsan, hur va bag'ri keng, Osmonni toqiga bino qo'yganim. Baxtlar qurshovida yuragini teng, Ikki tamonini g'amlar o'yganim.

Og'riqdan dunyoga solmay g'alayon, Sen va men bir tanda yonayapmiz jim. Har kuni har qalbga berayapmiz yon, Va lekin minnatni qilayapdi kim?

Hayot shunday ekan: gaho o'yinlar, Havaslar, hasadlar tuzog'ida men. Shamollar, bo'ronu quyun kor qilmas, Allohning nazari-panohida sen.



Sen va men manzilga, bu azim dunyo, Yaxshi tamonini quchib boramiz. Shukur-la, orzuning otini minib, Yuksak kengliklarga uchib boramiz.

OSMONINGGA OLIB KET...

Tor kelmoqda, netay, menga bag'ri, Taskinga o'xshaydi osmonning qa'ri, Meni osmoningga olib ket, yulduz, Yerga sig'mayapti yerliklar bari.

Maftun etmas ishqsiz bu ummon, Qara, yonayapti qalbmi yo o'rmon. Meni makoningga olib ket, yulduz, Aldov xiyonatlar tegramda xirmon.

Olib ket, ishqsizning yuragini o'y, Ayriqliqdan hijron, ko'rsatsin yuz, bo'y. Olib ket, qumsat chin uni bir umr, Hadsiz gardishinga qaratiblar qo'y.

Taftim iforlari, bir bersin og'riq, Ayriqliq azobin aylagin tortiq. Olib ket, qadrimni sezmagani yorni, Yonida yonishni xohlamam ortiq.

Endi makkorona kulishlar qolib, Sabrdan yuragi og'rinsin tolib, Olib ket, sen kabi nur taratayin. Muhabbat mayldan, ko'rinsin golib.

Qalbga muhabbatni o'ratib qo'yib, Xiyonat mayin u simirsin to'yib. Sevsa ham, kuysa ham, meni olib ket, Yashashni istamam har kuni o'lib.

Olib ket, bariga berayin barham, Yurak endi ishqin ko'rmaydi baham. Olib ket, meni gar, mendek sevmasa, Meni uchrashtirma, qiyomatda ham.

Ra'no SAMADOVA, Urgut tumani.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

17-FEVRAL

Akmal ORTIQOV – 1935-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori.

Aktam XOLMANOV – 1964-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

18-FEVRAL

O'ktam ORIPOV – 1951-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor.

20-FEVRAL

Olqor Damin – (1947-2017) Ishtixon tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Shoir.

Norqul MAMANOV – 1947-yilda Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

22-FEVRAL

Azim SUYUN – (1948-2020) Payariq tumani Nakurt qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

23-FEVRAL

Ahmadjon MUXTOROV – (1936-2000) Samarqand shahrida tug'ilgan. Jurnalist, publitsist, tarjimon.

Jabbor QOBILOV – (1911-1995) Jomboy tumanida tug'ilgan. Biolog olim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

Lola ABDULLAYEVA – (1937-1982) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 859 nusxada chop etildi. Buyurtma 60. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda